



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XORAZM VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*

Тел. 62-224-65-09

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 230 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 159 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar, mlrd so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,
oylar kesimida
(2024- 2025- yillar, foizda)**



2024-y.

2025-y.

2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 020,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 104,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 41,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 92,9%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 979,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,1%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 198,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,1 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar oyi)

	Jami, mlrd so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 020,2	107,4
Urganch sh.	275,7	103,6
Xiva sh.	44,9	104,5
Bog'ot	58,8	110,6
Gurlan	70,1	108,8
Qo'shko'pir	55,3	109,1
Urganch	122,9	109,4
Hazorasp	103,8	109,1
Tuproqqal'a	21,3	106,2
Xonqa	63,3	111,0
Xiva	35,6	111,2
Shovot	69,3	107,6
Yangiariq	40,0	104,7
Yangibozor	25,4	112,0

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Yangibozor (112,0%) tumani, Xiva tumani (111,2 %) va Xonqa tumanida (111,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri 28,0 % bilan 275,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa Tuproqqal'a tumani 2,2 % bilan 21,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Urganch sh.	275,7
Urganch	122,9
Hazorasp	103,8
Gurlan	70,1
Shovot	69,3
Xonqa	63,3
Bog'ot	58,8
Qo'shko'pir	55,3
Xiva sh.	44,9
Yangiariq	40,0
Xiva	35,6
Yangibozor	25,4
Tuproqqal'a	21,3




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 979,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 8,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 7,1 % ga kamaydi va 41,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,0 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,5 %), Qo'shko'pir (99,4 %), Gurlan va Yangiariq (mos ravishda 99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Yangibozor tumani (11,5 %), Urganch shahri (7,6 %), Xiva shahri (4,1 %) va Hazorasp tumanida (4,0 %) kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 506,6 ming so'm (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 105,4 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Urganch shahri (1 785,7 ming so'm), Urganch (569,1 ming so'm) va Hazorasp (498,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar)

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	198,8	112,2
Urganch sh.	36,0	115,6
Xiva sh.	9,1	111,2
Bog'ot	23,0	108,2
Gurlan	25,5	110,6
Qo'shko'pir	24,2	114,0
Urganch	-	-
Hazorasp	23,7	113,0
Tuproqqal'a	2,6	115,8
Xonqa	11,9	115,1
Xiva	-	-
Shovot	32,8	109,8
Yangiariq	6,1	117,9
Yangibozor	3,7	107,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2025- yil yanvar)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd so'm (2025- yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 198,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 112,2% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 4-bozor va 4-bozor (chorva) (choraklik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 91,7 mlrd so'mni (117,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 107,1 mlrd so'mni tashkil etdi (108,5%).












2025-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 91,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (9 615,9 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>44,9 mlrd so'm</p>  <p>48,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>7,3 mlrd so'm</p>  <p>7,9 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>6,0 mlrd so'm</p>  <p>6,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>3,3 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>4,2 mlrd so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>2,9 mlrd so'm</p>  <p>3,1 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,4 mlrd so'm</p>  <p>2,6 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>5,0 mlrd so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>2,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>10,1 mlrd so'm</p>  <p>11,0 %</p>

2025- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 107,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 97,5 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 9,0 mlrd so'mni, parrandalar – 0,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>54,4 mlrd so'm</p>  <p>50,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>26,1 mlrd so'm</p>  <p>24,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>17,0 mlrd so'm</p>  <p>15,9 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>7,8 mlrd so'm</p>  <p>7,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,02 mlrd so'm</p>  <p>0,02 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,2 mlrd so'm</p>  <p>1,1 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,4 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,2 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyونlar</p> <p>0,01 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,001 mlrd so'm</p>  <p>0,001 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 314 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mln so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	659 789,6	111,1
Urganch sh.	11 723,3	114,6
Xiva sh.	1 654,5	111,2
Bog'ot	1 903,1	108,6
Gurlan	429,7	108,8
Qo'shko'pir	480,9	126,6
Urganch	5 345,2	125,6
Hazorasp	987,8	110,1
Tuproqqal'a	327,3	108,6
Xonqa	1 970,7	109,9
Xiva	524,9	108,8
Shovot	2 001,8	110,6
Yangiariq	1 042,2	109,7
Yangibozor	900,4	109,4

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 659,8 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mln so‘m	Ulushi, Foizda
Xorazm viloyati	277 715,1	72,8
Urganch sh.	227 204,9	68,3
Xiva sh.	3 840,1	105,3
Bog‘ot	6 556,3	105,4
Gurlan	5 007,0	84,2
Qo‘shko‘pir	1 132,3	105,6
Urganch	4 846,0	106,9
Hazorasp	13 013,5	105,5
Tuproqqal‘a	1 291,6	106,1
Xonqa	6 753,1	105,2
Xiva	603,4	106,8
Shovot	2 743,4	105,9
Yangiariq	3 384,9	105,6
Yangibozor	1 338,6	105,3


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Urganch shahrii (227,2 mlrd so‘m), Hazorasp (13,0 mlrd so‘m) va Xonqa (6,7 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd so‘m)




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 277,7 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 221,8 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 67,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 55,9 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 103,3 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 587,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga o‘sd.

Savdo aylanmasi va ulushi

1,5 %

8,8 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

98,5 %

578,2 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 578,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	587,0	112,2
Urganch sh.	321,3	116,8
Xiva sh.	16,8	135,9
Bog'ot	6,5	106,8
Gurlan	9,1	104,5
Qo'shko'pir	5,9	119,2
Urganch	87,9	104,4
Hazorasp	5,5	103,0
Tuproqqal'a	5,6	103,4
Xonqa	20,9	102,9
Xiva	26,7	103,0
Shovot	8,7	107,9
Yangiariq	17,6	102,9
Yangibozor	9,4	106,9

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 005 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 983 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Yangiariq (4,6 b.), Qo'shko'pir (2,3 b.) va Yangibozor (2,1 b.) tumanlarida kuzatildi.